# XALQ DEPUTATLARI ZANGIOTA TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 15 - yanvar VI-64-8-10-138-K/24 Zangiota tuman hokimligi

## Zangiota tumanining 2024 yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2024 yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Zangiota tumanining 2024 yil uchun mahalliy budjetini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Zangiota tuman Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonlli Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2024 yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2024 yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Zangiota tuman mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari **126 143,5 mln.so‘m** va xarajatlari **194 713,8 mln.so‘m** miqdorida prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar,

2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga,

2024 yil uchun tuman mahalliy budjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari 2-ilovaga,

2024 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1 725,9 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. 2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 071,4 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

6. Tumandagi hududlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishidan kelib chiqib, yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonlli Qonunining 12-moddasiga muvofiq, 2024 yilda,

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan

olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Quyidagilar viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq taqsimlanadi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i tushumlarini tumanlar va shaharlar budjetlariga yo‘naltirishga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli ekanligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

8. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonlli Qonunining 13-moddasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Jo‘rayev), soliq inspeksiyasi (D.Sulaymonov) hamda tumandagi mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushishini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Sulaymonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda

video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratilsin.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Sulaymonov) manfaatdor tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

12. Majburiy ijro byurosi Zangiota tuman bo‘limi (B.Nuraliyev) soliq inspeksiyasi (D.Sulaymonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Sh.Umarxodjaeva) tumandagi manfaatdor tashkilotlar bilan jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

14. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (I.Bahodirov) va soliq inspeksiyasi (D.Sulaymonov) manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib

olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Berdiyev):

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligining hududiy bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borsin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Berdiyev), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tumandagi tegishli manfaatdor tashkilotlar rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Mazkur qaror “Istiqbol” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (D.Mirzaboyeva) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **E.E.Rustamov**

Xalq deputatlari Zangiota tuman
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-64-8-10-138-K/24-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

# 2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

*ming so‘mda*

| № | Daromad turi | Prognoz | Ajratma me‘yori |
|---|---|---|---|
| **Jami daromadlar** | | **126 143 550,0** | |
| **I.** | **Rag'batlantiruvchi daromad** | **15 373 150,0** | |
| 1 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 11 718 000,0 | 5,0 |
| 2 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 3 655 150,0 | 5,0 |
| **II.** | **Biriktirilgan daromadlar** | **81 852 400,0** | |
| **Tuman va shaharlarga biriktirilgan** | | **67 128 000,0** | |
| 1 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 26 679 000,0 | 100,0 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 29 926 000,0 | 100,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (YaTT) | 3 403 000,0 | 100,0 |
| 4 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 6 508 000,0 | 100,0 |
| 5 | Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda | 174 000,0 | 100,0 |
| 6 | Ijara to‘lovlari | 438 000,0 | |
| **Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar** | | **14 724 400,0** | |
| 1 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 1 835 700,0 | 5,0 |
| 2 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 4 083 100,0 | 10,0 |
| 3 | Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq | 0,0 | 0,0 |
| 4 | Aylanmadan soliq | 8 805 600,0 | 30,0 |
| **j a m i** | | **97 225 550,0** | |
| **III.** | **Taqsimlanuvchi daromadlar** | **28 918 000,0** | |
| 1 | Alkogol mahsulotlariga aktsiz solig'i (shu jumladan pivo) | 12 535 000,0 | |
| 2 | Tamaki mahsulotlari uchun aktsiz solig‘i | 11 334 000,0 | |
| 3 | Mobil aloqa xizmati uchun aktsiz solig‘i | 5 049 000,0 | |
| **IV.** | **Transfertlar** | **68 570 254,0** | |

Xalq deputatlari Zangiota tuman
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-64-8-10-138-K/24-son qaroriga
2-ilova

# 2024 yil uchun tuman mahalliy budjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari

*ming so‘mda*

| Ko‘rsatkichlar | | Miqdori |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar – jami** | **194 713 804,0** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar – jami** | **122 456 176,0** |
| 1.1 | Maorif | 23 470 651,0 |
| | - maktabgacha ta’lim | 10 625 764,0 |
| | - umumiy ta’lim | 12 844 887,0 |
| 1.2 | Sog‘liqni saqlash | 90 453 844,0 |
| 1.3 | Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari | 8 355 813,0 |
| | - madaniyat va ommaviy axborot vositalari | 1 566 265,0 |
| | - sport | 6 789 548,0 |
| 1.4 | Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar | |
| 1.5 | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» | 36 800,0 |
| 1.6 | Ijtimoiy ko‘nikma markazlari | 139 068,0 |
| **2.** | **Iqtisodiyotga xarajatlar** | **19 700 059,0** |
| 2.1 | Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari | 4 000 000,0 |
| 2.2 | Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari | 177 932,0 |
| 2.3 | Obodonlashtirish | 9 969 933,0 |
| 2.4 | Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari | 1 660 067,0 |
| 2.5 | Veterinariya qo‘mitasi | 1 164 143,0 |
| 2.6 | "Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari | 2 727 984,0 |
| **3.** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **30 436 680,0** |
| **4.** | **Zahira jamg‘armasi** | **1 725 929,0** |
| **5.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **20 394 960,0** |

Xalq deputatlari Zangiota tuman
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-64-8-10-138-K/24-son qaroriga
3-ilova

# 2024 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

**ming so‘mda**

| T/r | Shahar va tumanlar | Summa |
|---|---|---|
| 1 | Zangiota tumani | 68 570 254,0 |

Xalq deputatlari Zangiota tuman
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-64-8-10-138-K/24-son qaroriga
4-ilova

# Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | Koeffisient (mutloq miqdor) | 1 kv.metr uchun belgilangan qiymat (so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | Zangiota tumani | 1.0 | 1 200 000.0 |